

## **MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA TEST TOPSHIRIQLARINI TUZISH METODIKASI**

**Yulchiboyeva Gulnozaxon Baxodirovna**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Farg'ona akademik litseyi Matematika fani bosh  
o'qituvchisi*

Respublikamizdagi ta'lif maskanlarida o'quvchilar bilimini sinashning test usuli joriy qilinishi ta'lif sifatini oshirishda ijobjiy natijalar berayotganligi ma'lum. Ayniqsa, bu usul aniq fanlarni o'rganishda yanada samaraliroqdir. Ammo, har qanday yaxshi usuldan ham o'z orniда va to'g'ri foydalanilgandagina ijobjiy natijalar berishi mumkin. Ba'zi matematika fani oq'ituvchilari ham test usulidan shikoyat qilishib, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati va nutq madaniyatini so'ndirib yuboradi, deyishadi.

Ushbu maqolada matematika fanini o'qitishda test usulining afzalligi, test topshiriqlarini tuzish metodikasi

Matematika fanini o'qitishda test usulining afzalligi. Ta'lif jarayoniga test usulini joriy qilish - butun darsni test usulida tashkil qilish degani emas.

Masalan, o'rganilayotgan materialning nazariy qismi ogzaki usulda tushuntiriladi va amaliy mashqlar bilan mustahkamlanadi, og'zaki so'raladi. Bu jarayon o'quvchida o'z fikrini og'zaki, erkin bayon qilish imkonini yaratadi.

Hozirgi paytda aholi zich joylashgan joylarda o'rta maktablarning har bir sinfida

30-35 ta, hatto undan ko'p o'quvchi ta'lif olayotganligi sir emas. Shunday vaziyatda o'quvchilar bilimlarini sinashning qulay usullaridan foydalanilmasa, og'zaki savol-javob usuli yetarlicha samara bermaydi. Chunki o'quvchilar sonining ko'pligi va vaqtning kamligi tufayli o'qituvchi o'quvchilar bilimini sinashga ulgura olmaydi. Bunday vaziyatda test usulidan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Shuning uchun

har bir mavzuga yoki har bir bobga mo'ljallangan testlar tuzish lozim.

Test usulining yaxshi samara bermasligining sabablaridan biri shundaki, ko'pincha test nomigagina bo'lib, savol va 5 ta javobdan iborat bo'lib qoladi. Yoki juda ko'p savollari bir tipdaligi tufayli o'quvchi uning bajarish jarayonida zerikib qoladi. Shuning uchun har bir fan o'qituvchisi test tuzish qonun qoidalari, test tuzishga qo'yilgan talablarini, test va uning turlari haqida yaxshi tushunchaga ega bo'lishi kerak.

"Test" atamasi birinchi marta amerikalik psixolog J.Kettel tomonidan 1890 yilda kiritilgan. "Test" atamasi inglizcha "test" so'zidan olingan bo'lib, tekshirish, nazorat, sinov ma'nolarini bildiradi. Pedagogikada "test" atamasi o'ziga xos shaklga va maz-munga, turli qiyinlik darajasiga ega bo'lgan, o'quvchilar o'zlashtirishi darajasini xolisona baholash imkoniyatini beradigan topshiriqlar

tizimidan iborat. Test topshi-riqlari - ta'lim natijalarini xolisona nazorat qilishning didaktik va texnologik vosi-talaridan hisoblanadi. Test sinovlari yordamida barcha o'quvchilarning bilimini bir vaqtida tekshirish, ularni mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishga, mustaqil o'ish ko'nikmalarini rivojlatirishga o'rgatish, intizomini mustahkamlash kabi imkoniyatlar yaratiladi.

Testlarning o'quvchilar o'zlashtirishi darajasi bo'yicha tasnifi

Birinchi bosqich testlar:

1. Tanib olish testlari

- "ha" yoki "yo'q", "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb javob beriladigan savoldan iborat bo'ladi. Topshiriqda albatta o'quvchi bilishi yoki xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim bo'lgan ob'ekt haqida so'raladi.

2. Farqlash testlari

- bir yoki bir necha to'g'ri javobga ega bo'lgan testlar.

3. Qiyoslash testlari

- o'rganilgan obhektlarda umumiylit yoki farqlarni topish so'raladi, bunda qiyos-lanayotgan xususiyatlar yoki parametrlar topshiriq shartida berilgan bo'ladi.

4. Bir necha variantli test-topshiriqlar

- topshiriq sharti va barcha kerakli boshlang'ich ma'lumotlar beriladi, javoblar vari-antlari keltiriladi. O'quvchi berilgan topshiriq yechimini va to'g'ri javob qaysi ekanli-gini ko'rsatishi kerak.

Ikkinchi bosqich testlari:

1. Ma'lumotni eslash testlari.

- test savoli beriladi, javob variantlari berilmaydi.

O'quvchi javob uchun kerakli ma'lumotlarni eslash asosida to'g'ri javobni topishi kerak.

2. To'ldirish testlari.

- topshiriqda har xil shakldagi ma'lumot - matn, formula (tenglama), chizma yoki grafik beriladi va o'quvchi tushirib qoldirilgan ma'lumotni to'ldirishi kerak.

3. Konstruktiv testlar.

- o'quvchi javobni topish uchun, masalan, formulani yozishi, teoremani isbotlashi yoki grafikni chizib berishi lozim.

Uchinchi bosqich testlar:

1. Ijodiy qobiliyat testlari

- o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni yangi sharoitlarda, amaliyotda ishlatalish

so'raladi.

TEST TURLARI:

1. Yopiq test savollari

O'quvchi javob berishi kerak bo'lgan savol yoziladi, keyin to'g'ri javob aniq va lo'nda qilib yoziladi, keyin javobdan kalit so'z yoki formula, belgi, simvol, harflarni o'zgartirib, tushirib qoldirib noto'g'ri javob variantlari tuziladi. Topshiriq shartidan keyin to'g'ri javob va 1-3ta to'g'riga o'xshagan, lekin to'g'ri bo'limgan javob variantlari keltiriladi.

## 2. Ochiq test savollari

O'quvchi javob berishi kerak bo'lgan savol yoziladi, bunda o'quvchining vazifasi yetishmayotgan kalit so'z yoki ma'lumotni yozish. Savolni shunday tuzish lozimki, topilishi kerak bo'lgan kalit so'z gapning oxirida bulsin, aks holda savolning maz-munini anglash qiyinlashadi. Topshiriq tinglovchi uchun topshiriqni bajarishga ko'r-satma bilan boshlanadi, masalan, "tushirib qoldirilgan so'zni toping", kabi.

## 3. Moslikni topish test savollari

O'quv materialiga asoslangan holda, bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lumot-lardan ikkita ustun tuziladi. O'ng tarafdag'i ustunda so'zlar chap tarafdag'i ustundan bir nechta ortiq bo'lishi ham mumkin. Javoblarni tekshirish qulay bo'lishi uchun chap tarafdag'i ustunni raqamlar bilan, o'ng tarafdag'i ustunni harflar bilan belgilang.

O'quvchi o'ng tarafdag'i ustunda berilgan ma'lumotlarga chap ustundagi qaysi ma'-lumotlar mos kelishini topishi kerak.

## 4. To'g'ri ketma-ketlikni topish test savollari

O'quvchiga ko'rsatma beriladi: "To'g'ri ketma-ketlikni toping". O'quvchi berilgan javob variantlarini to'g'ri ketma-ketlikda qo'yib chiqishi kerak, bu ketma-ketlik xronologik yoki boshqa mantiqiy tartib bo'lishi mumkin. Bunda o'quvchiga berilgan ko'rsatma aniq bo'lishi kerak, agar berilgan ro'yxitda mantiqiy ketma-ketlikka kirmaydigan (ortiqcha) elementlar bo'lsa, bu ham ko'rsatmada aytib o'tilishi kerak. Topshiriqqa kiritilgan elementlar soni 5 tadan 12 tagacha bo'lishi mumkin.

Test turlari, bosqichlari, ularni qo'llashni puxta o'rgangan o'quvchi ixtisoslashgan maktab, kollej, texnikum, oily ta'limga kirish imtihonlarini topshirishda qiyinchiliksiz yuqori natijaga erisha oladi.

Bundan tashqari nafaqt o'quvchi yoki abiturient, balki barcha ijtimoiy, iqtisodiy, me-ditsina, boshqaruv soha vakillari ham attestatsiyadan o'tish jarayonida elektron tarzda test sinovlaridan o'tkaziladi. Bu jarayon ma'lum vaqtda takrorlanib turishini inobatga olsak, testlar bilan ishlash texnikasi deyarli ko'pchilikka kerak va buni o'rganish foydadan xoli emas ekan.